


## **Xizmatlar sohasining rivojlanishi – amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'zgidir**

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida bozor xizmatlari hajmi 973,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 108,6 % ga o'sdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi: transport xizmatlari (25,6 %), savdo xizmatlari (22,5 %), moliyaviy xizmatlar (19,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.


### **2020-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, % da**



*Ma'lumot uchun: 2019-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 807,3 mlrd. so'mga teng bo'lgan.*

2020-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 166,6 mlrd. so'mga oshdi.

**Ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm**




Joriy yilning 2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (35,3 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (27,0 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (55,2 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (8,7 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab  
chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>973,9</b>	<b>108,6</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	60,2	112,6
moliyaviy xizmatlar	190,6	132,8
transport xizmatlari	249,4	104,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	135,4	103,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	28,9	108,6
savdo xizmatlari	219,7	101,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	31,8	101,4
ta'lim sohasidagi xizmatlar	48,6	114,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	12,7	100,3
ijara xizmatlari	21,2	91,5
kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	29,3	103,4
shaxsiy xizmatlar	37,2	104,2
me'morchilik sohasidagi xizmatlar	16,5	92,8
boshqa xizmatlar	27,8	100,2

**2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlarining o‘sinh sur‘atlari, % da**



- |  |  |
|--|--|
| <b>1</b> Xizmatlar - jami                      | <b>8</b> Ta'lim sohasidagi xizmatlar                   |
| <b>2</b> Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | <b>9</b> Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar        |
| <b>3</b> Moliyaviy xizmatlar                   | <b>10</b> Ijara xizmatlari                             |
| <b>4</b> Transport xizmatlari                  | <b>11</b> Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar |
| <b>5</b> Yashash va ovqatlanish xizmatlari     | <b>12</b> Shaxsiy xizmatlar                            |
| <b>6</b> Savdo xizmatlari                      | <b>13</b> Me'morchilik sohasidagi xizmatlar            |
| <b>7</b> Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | <b>14</b> Boshqa xizmatlar                             |


2020-yil yanvar-fevral oylarida 2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar (32,8 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (14,6 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (12,6 %) kabi xizmatlarda yuqori o‘sinh sur‘atlari kuzatildi.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da**

Transport xizmatlari	25,6 %
Savdo xizmatlari	22,5 %
Moliyaviy xizmatlar	19,6 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,2 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	5,0 %
Shaxsiy xizmatlar	3,8 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,3 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,0 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,0 %
Boshqa xizmatlar	2,8 %
Ijara xizmatlari	2,2 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,7 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,3 %

Jami xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (25,6 %), savdo xizmatlari (22,5 %), moliyaviy xizmatlar (19,6 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Transport xizmatlari	249,4 mlrd. so'm
	Savdo xizmatlari	219,7 mlrd. so'm
	Moliyaviy xizmatlar	190,6 mlrd. so'm
	Boshqa xizmatlar	78,2 mlrd. so'm
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	60,2 mlrd. so'm
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	48,6 mlrd. so'm
	Shaxsiy xizmatlar	37,2 mlrd. so'm
	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	31,8 mlrd. so'm
	Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	29,3 mlrd. so'm
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	28,9 mlrd. so'm

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (249,4 mlrd. so'm), savdo xizmatlari (219,7 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (190,6 mlrd. so'm) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (60,2 mlrd. so'm) bo'yicha kuzatildi.

Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste‘molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari hudud iqtisodiyotida ko‘rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.


2020-yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari hajmi 219,7 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 22,5 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo‘lib, uning ulushi 80,6 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 12,3 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlarni qo‘shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo‘yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 7,1 % ni egallaydi.

### 2020-yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da



- Avtomobillar va mototsikllarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlarni qo‘shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo‘yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 190,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, 2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati esa 132,8 % ni tashkil etdi.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy  
xizmatlarning tarkibi, % da**



**Xizmatlar sohasi statistikasi  
bo'limi  
71-230-82-15**